



ISSN 2181-9831



WORLD SOCIAL SCIENCE

Scientific - practical journal

*Ijtimoiy-
gumanitar
fanlar
yo'nalishi*

*Направление
социально-
гуманитарных
наук*

*Social-
humanitarian
sciences*



2
2019

WORLD SOCIAL SCIENCE

Scientific – practical journal

Scientific-practical journal of “Science of world”

Partner:

"*****"SHgti j cpc"dtcpej "qh"Vcu j ngpv"Vpkxgtukv{ "qh"Kphqto cvkq"Vgej pqmqi { \$

<p style="text-align: center;">2019 №2(8)</p> <p style="text-align: center;">Social-humanitarian sciences</p> <p style="text-align: center;">Направление социально-гуманитарных наук</p> <p style="text-align: center;">Ijtimoiy-gumanitar fanlar yo'nalishi</p>	<p style="text-align: center;">Head editor: F.N.Farxodjonova</p> <p style="text-align: center;">Members of the editorial: M.Ismoilov- prof. (NameCI) I.Ergashev- prof. (NUUz) I.Bekmirzayev – prof.(IIA) F.Abduraxmonov - prof. (TTI) Y.Apaqov- DSc(NameCI) M.Mamatov - DSc (FSU) D.Normatova - ass.prof. (FSU) Z.Abduraxmonova - ass.prof. (NUUz) L.Muxammadjonova - ass.prof. (NUUz) T.Chariyev - ass.prof. (SCUz) A. Normirzayev - ass.prof. (NameCI) I.Soliyev - ass.prof. (NameCI) A.Soxadaliyev - ass.prof. (NameCI) M.Teshaboyev - PhD (FBTUIT) D.Nuraliyeva - (FSU) N.Atabayeva – (TACI) E.Jumaniyozova – (TACI) F.Tursunova - (TIF) M.Abduhamidov – (NUUz) Y.Babajanova – (TACI)</p> <p>Responsible editor: U.Karimov</p>
--	--

Remember: Author responsible to the right articles.

CONTENT

Xoliqov L. O'zbekistonda sud hokimiyati tizimidagi islohotlar strategiyasi.....	68
Чаршамов Ф. Банкларда банкротликнинг келиб чиқиш сабаблари ва уларнинг олдини олиш йўллари.....	69
PHILOLOGICAL SCIENCES	
Allanyazov M., Baxtiyorov B. Competitive tasks in English classes at a technical university	74
Djumaniyozova E. Relevance of foreign language proficiency in the modern world.....	76
Кодирова С. Савод ўргатиш жараёни.....	77
Mamarizayeva F. O'zbek tilida ko'chma ma'noli so'zlar va ularning ingliz tiliga tarjimasini....	79
Мамадалиева А., Набижонов Р., Қўчқоров С. Чет тилларни ўргатишда педагогик технология ва ахборот технологияларидан фойдаланишнинг аҳамияти.....	81
Obidova A. Ёшларнинг хорижий тилларни ўрганишида интерфаол усулларнинг ўрни....	82
Сатторова М. Хорижий тилларни ўқитишда дидактик ўйинлардан самарали фойдаланиш йўллари.....	84
Эсанов А. Эрнест Хемингуэйнинг “Чол ва денгиз” асаридаги иборали феълларнинг таржимаси борасида.....	85
Shadmonov Sh. The content of teaching grammar.....	86
INNOVATIVE RESEARCH	
Бердиева С. Математика ва информатика фани ўртасидаги узвий боғлиқликни шакллантириш.....	89
Нигай Р., Абдуазимов О. Модульная система кондиционирования воздуха пассажирского вагона.....	90
Норова Ф. Инновационный потенциал образовательного учреждения.....	92
Сафарова Н. Information and communication technologies in mathematics lessons.....	94
Соболева И.Ю., Балтаев М.Б. Усовершенствование восстановительных работ по сварке и наплавке корпуса автосцепки с помощью автоматических сварочных установок.....	95
Рузметов Я.О., Зафаров Д.Ш. Усовершенствование конструкции котла вагонов-цистерн путем использования высокопрочных сталей.....	97

O'ZBEKISTONDA SUD HOKIMIYATI TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR STRATEGIYASI

Xoliqov Lazizjon Mahmud o'g'li, talaba
Buxoro Davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati tizimi va harakatlar strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: odil sudlov, advokatura, advokat, adolat, harakatlar strategiyasi, sudya, Sudyalar Oliy kengashi.

Avvalo shuni ishonch bilan qayd etish joizki, mamlakatimizda mustaqillik yillarida demokratik tamoyillarga mos odil sudlov tizimi yaratildi. Haqiqatan ham, sud yaqino'tmishda sobiq kommunistik tuzumning qatag'on va jazo quroli hisoblangan bo'lsa, endilikda u bosqichma-bosqich hokimiyatning chinakam mustaqil, nufuzli, inson huquq va erkinliklarini ishonchli tarzda muhofaza eta oladigan institutiga aylanib borayotganini ko'rishimiz mumkin. Yana bir muhim jihat - fuqarolarimizning ham sud hokimiyatiga nisbatan ishonchsizligi barham topmoqda. Bularning barchasi birinchi Prezidentimiz tashabbusi va rahnamoligida tadjiriy asosda amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlar samarasi ekanligini tarixni o'zi ko'rsatib turibdi.

1993 yilda qabul qilingan "Sudlar to'g'risida"gi dastlabki qonundayoq aybsizlikprezumpsiyasi, himoyaga bo'lgan huquq, sud jarayonidagi tortishuv va oshkoralik kabi bir qator umume'tirof etilgan prinsiplar mustahkamlab qo'yilganidan edi. Ular keyinchalik Jinoyi-protsessual, Fuqarolik-protsessual kodekslarida va boshqa qonun hujjatlarida yanada keng aks etdi. Islohot davomida qabul qilingan "Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida", "Advokatura to'g'risida", "Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida" kabi qonunlar fuqarolar, yuridik shaxslar huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini sud orqali himoya qilishni kuchaytirish bilan birga, butun sud tizimini demokratlashtirishga ko'maklashdi.

Yangi tahrirdagi "Sudlar to'g'risida"gi Qonun joriy etilgan o'zgarishlarning barcha ijobiy tajribasini o'zida qamrab oldi. Bu bilan sudlar faoliyatini yanada demokratlashtirish va takomillashtirish uchun qulay imkoniyatlar, keng shart-sharoitlar yaratildi. Eng asosiysi, qonunda hokimiyatlar bo'linishi konstitutsiyaviy prinsipini ro'yobga chiqarish va hokimiyatning chinakam mustaqil tarmog'i sifatida sud erkinligini ta'minlashning samarali mexanizmlari o'z aksini topgan.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida boshlangan, hayotga tatbiq etilayotgan izchil islohotlar, amaliy sa'y-harakatlar yangi taraqqiyot marralarini egallash, zamon shiddatiga mos tarzda rivojlanish, xalqimiz manfaatlarini ta'minlashga qaratilgani bilan muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Bu nafaqat xalqimiz, balki jahon jamoatchiligi tomonidan ham e'tirof etilmoqda. Bu haqida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bu haqida quyidagilarni e'tirof etganlar: "Inson qadr-qimmatini e'zozlash, buning chun har qanday holatda ham adolatniqarortoptirishgaqodirbo'lganodilsudlovtiziminish akllantirish biz uchun o'tgan ikki yildavomida engustuvor vazifaga aylandi".

Buyuk sohibqiron Amir Temur bobomiz Oqsaroy peshtoqiga "Adolat – davlatning asosiy vahukmdorlar shioridir", degan hikmatli so'zlarni yozdirgani bejiz emas, albatta. Ushbu ulug'vor g'oya inson qadr-qimmatini oliy darajaga ko'tarish borasidagi amaliy harakatlarimiz poydevoriga aylandi".

Shuni alohida qayd etish lozimki, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishga oid yangi vazifalar belgilangan.

Shuasosda mamlakatimizda sud hokimiyatining nufuzini oshirish, chinakam mustaqilligini ta'minlash bilan bir qatorda soha faoliyatini yanada takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilayotir. Davlatimiz rahbarining 2017 yil 21 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni buning yaqqol tasdig'idir.

Farmonda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartishlar va qo'shimcha kiritish to'g'risida"gi va "O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to'g'risida"gi qonunlar 2017 yil 7 aprelda matbuotda e'lon qilindi.

"O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartishlar va qo'shimcha kiritish to'g'risida"gi qonun bilan Asosiy qonunimizning 80, 81, 83, 93, 107, 110, 111-moddalariga o'zgartishlar va qo'shimcha kiritildi. Bulardan ayrimlari Sudyalar oliy kengashi bilan bog'liq bo'lib, ushbu tuzilmaning faoliyatiga oid masalalar "O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to'g'risida"gi qonunda to'liq o'z ifodasini topgan.

Yangi kengash konstitutsiyaviy maqomga ega bo'ldi. Konstitutsiyamizning 111-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi sudyalarda mjamiyatining organ bo'lib, u O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyatining mustaqilligi konstitutsiyaviy prinsipiga rioya etilishini ta'minlashga ko'maklashadi. O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashini tashkil etish va uning faoliyati tartibi qonun bilan belgilanadi.

Bunday maqom kengashga yuklatilgan vazifalarni mustaqil va samarali amalga oshirishning muhim konstitutsiyaviy kafolati hisoblanadi. Xalqaro standartlarda bunday amaliyot doim yuksak e'tirof etilgan. Shuning uchun ham ko'pgina rivojlangan demokratik davlatlar konstitutsiyalari bunday vazifani amalga oshiruvchi organlar faoliyatini tartibga soluvchi normalarni o'zida ifodalagan.

Yanabire'tiborlijihatshundaki, mazkur organi tashkil etishva uning faoliyati avvalgidek davlat boshlig'i farmoyishi bilan tasdiqlangan nizom asosida emas, balki qonun bilan belgilanishidir. Sudyalar oliy kengashi raisi avvalgidek Senat a'zolari orasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoyishi bilan tayinlanmay, balki boshqa bir qator mustaqil konstitutsiyaviy organlar rahbarlari kabi Prezidentimizning taqdimiga binoan Senat tomonidan tayinlanishi yuqori palataning mutlaq vakolatlariga kiritildi.

Bundan tashqari, Sudyalar oliy kengashi raisi Qonunchilik palatasi va Senat majlislarida, shuningdek, ularning organlari majlislarida ishtirok etishi konstitutsiyaviy jihatdan mumkin bo'lgan shaxslar qatoriga kiritildi. Bu mazkur lavozim yuksak obro' va nufuzga egaligidan dalolat bo'lib, uning mustaqilligini, daxlsizligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Endilikda harbiy sudlarning, viloyatlar va Toshkent shahar sudlarining sudyalarini, tumanlararo,

tuman, shahar sudlarining raislari va sudyalarini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishilgan holda kengashning o'zi lavozimga tayinlaydi. Qonunda nazarda tutilgan hollarda ularni Prezident bilan kelishilgan holda lavozimidan ozod qiladi. Bu jihatlar kengashning nufuzini ko'tardi va mustahkamladi.

Mazkur islohotlar fuqarolar huquq va erkinliklarining ishonchli sud himoyasini, sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlashga, sudlar faoliyati samaradorligi va nufuzini, odilsudlovga erishish darajasini oshirishga xizmat qiladi. Zero, prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek, "...yurtimizda so'nggi yillarda qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq sohasini takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu o'zgarishlar inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash, odil sudlovga erishish, huquqni muhofaza qilish idoralari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan".

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi T.: „O'zbekiston“, 2018.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Xalqso'zi, 29 dekabr, 2018 yil, № 271-272 (7229-7230).
3. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. //Xalq so'zi, 2018 yil, 29 dekabr. № 253 (7211).
4. "Sudlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni. //Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.07.2018, 03/18/486/1559-son, 12.10.2018 y., 03/18/496/2043-son.

БАНКЛАРДА БАНКРОТЛИКНИНГ КЕЛИБ ЧИҚИШ САБАБЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШ ЙЎЛЛАРИ

Чаршамов Ф., магистрант
Ўзбекистон Республикаси Банк-молия академияси

Аннотация: Ушбу илмий мақолани аҳамияти шундан иборатки тижорат банкларида банкротликнинг келиб чиқиш сабаблари ва уларнинг олдини олиш йўллари таҳлил қилиш, жаҳон амалиётида банкротликни юз бериши сабабларини аниқлаш, инқирознинг иқтисодий моҳиятини, турлари ва келиб чиқиш сабабларини илмий жиҳатдан ёритиб бериш, хорижий мамлакатлар банк-молия секторида инқирозга қарши бошқарувни таъкил этишининг амалий жиҳатларини ўрганган ҳолда Республика тижорат банклари учун тавсиялар ишлаб чиқиш.

Калит сўзлар: Банкротлик, ликвидлик, капитал, тижорат банклар, қарздор, инқроз, актив, депозит, таваккалчилик.

Адабиётлар шарҳи: Тижорат банклари томонидан банкротликнинг миқдорий таҳлил қилиш усуллари энг кўп сонли гуруҳ ҳисобланади. Бугунги кунда Россия давлатида кўплаб молиявий мониторинг тизимлари фақат коэффицент таҳлил усулига асосланган. Коэффицентни таҳлил қилишнинг энг илғор тизимларидан бири 1997 йилдан Германиянинг Марказий банки томонидан фойдаланадиган **BAKIS – BAKred Information System**. Бу тизим бозор таваккалчилиги, ликвидлик хатарлари, кредит таваккалчилигига ҳамда банк операцияларининг рентабеллиги билан боғлиқ коэффицентларга боғлиқ 47 коэффицентни аниқлайди. АҚШда қўлланиладиган **BMS – Bank Monitoring Screens** 35 та параметр ва капитал бозорига тегишли 39 та молиявий кўрсаткични бирлаштиради. (Плещицер, 2010)

Рус олими Шеметев А (2009). томонидан “банкларнинг банкрот бўлиш имкониятларини баҳолаш” методи ўрганилиб чиқилган. Муаллифнинг тадқиқоти тижорат банкининг расмий ҳисоботида қандай килиб банкнинг банкротлик эҳтимоли ҳақида олдиндан таҳмин қилиш мумқунлигига бағишланган.

Банкнинг ўзи вақтинчалик қийнчиликларни бартараф қила оладиган бўлса, бу ҳолда кутиш стратегияси амал қилади. Масалан, ушбу стратегия ривожланган мамлакатларнинг қарз хуружининг кучайиши ортидан 80-йилларда бир қатор йирик Америка банкларига қўлланилди ва банкларни тартибга солиш органларига маълум фойда келтирди (Bank Failures and Rescues, 2011).

Юридик адабиётларида “иқтисодий ночорлик” ва “банкротлик” тушунчаларининг ўзи синоним бўлган тушунчаларми ёки ҳар хил тушунчаларми,